

“Tasdiqlayman”

**Xalqaro Nordik universiteti
rektori Sh.I. Mustafakulov**

2026 yil



**TALABALARNI O‘QISHDAN KO‘CHIRISH, TALABALAR SAFIDAN
CHETLASHTIRISH, AKADEMIK TA‘TIL BERISH, TALABALAR
O‘QISHINI TIKLASH TO‘G‘RISIDA**

NIZOM

*Xalqaro Nordik universiteti Kengashining
2026 yil 30-yanvar 1-sonli qarori bilan tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2026

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Nizom Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) talabalar harakati bilan bog‘liq jarayonlarni, jumladan:

- talabalarni o‘qishini ko‘chirish;
- o‘qishini ko‘chirib tiklash;
- o‘qishini qayta tiklash;
- akademik ta’til berish;
- talabalar safidan chetlashtirish

tartibini hamda ushbu jarayonlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi.

1.3. Talabalar o‘qishini ko‘chirish, o‘qishini ko‘chirib tiklash, qayta tiklash, akademik ta’til berish va talabalar safidan chetlashtirish Universitet rektorining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

1.4. Universitetga boshqa oliy ta’lim tashkilotlaridan o‘qishni ko‘chirish 1-bosqichni muvaffaqiyatli tamomlagan hamda akademik qarzdorligi mavjud bo‘lmagan talabalar uchun o‘quv yilining ikkinchi bosqichidan boshlab amalga oshiriladi.

1.5. Quyidagi holatlar fuqaroning o‘qishini ko‘chirish yoki qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo‘ladi:

- xorijiy davlatlarning akkreditatsiyadan o‘tmagan oliy ta’lim tashkilotlarida yoki ularning filiallarida tahsil olgan shaxslarga;
- respublika oliy ta’lim tashkilotlarida mavjud ta’lim shaklidan boshqa ta’lim shaklida tahsil olganlarga;
- birinchi kursning birinchi semestri yakunlanmagan holatda o‘qishni ko‘chirishga (kasallik sababli akademik ta’til berilgan holatlar bundan mustasno);
- Universitetda mos yoki turdosh ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) mavjud bo‘lmagan taqdirda;
- namunaviy o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha farqlar 4 tadan ortiq bo‘lgan hollarda;
- to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilgan shaxslar belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmagan taqdirda;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

1.6. Universitet doirasida talabalar o'qishini ko'chirish quyidagi omillar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

- ta'lim yo'nalishlarining o'zaro mosligi;
- talabaning oliy ta'lim muassasasiga kirishda topshirgan test fanlari majmuasi;
- o'quv rejalaridagi fanlar tarkibi va hajmi;
- talabaning ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha tayyorgarlik darajasi.

1.7. Xorijiy fuqarolarning o'qishini xorijiy oliy ta'lim tashkilotlaridan Universitetga ko'chirish suhbat (intervyu) asosida amalga oshiriladi.

1.8. Talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash jarayonida to'lov-kontrakt shartnomasini tuzish tartibi, to'lov miqdorlari hamda to'lov muddatlari Universitet tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.9. Universitet talabalarining o'qishini mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishiga, shuningdek ayrim hollarda turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga ko'chirishga quyidagi holatlarda ruxsat beriladi:

- talaba turmush qurishi munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirishni so'rab murojaat qilganda;
- davlat organlari xodimlarining ish joyi tegishli vazirlik yoki idoralar tomonidan o'zgartirilgan taqdirda, uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi o'qishini ko'chirish bo'yicha murojaat qilganda.

1.10. Mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklar bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish yoki qayta tiklash Universitet rektorining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

1.11. Mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bir oliy ta'lim tashkilotidan boshqasiga talabalar o'qishini ko'chirish yoki ko'chirib tiklash qabul qilayotgan oliy ta'lim tashkiloti bo'ysunadigan vazirlik yoki idora qarori asosida amalga oshiriladi.

1.12. Quyidagi hollarda talabalar o'qishini ko'chirish yoki ko'chirib tiklash Davlat komissiyasi qarori bilan amalga oshiriladi:

- turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlari yoki mos bo'lmagan mutaxassisliklarga ko'chirishda;
- Universitetda mos ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lmagan hollarda;
- xorijiy yoki nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan asosli sabablar mavjud bo'lganda istisno tariqasida o'qishni ko'chirishda.

1.13. Talabani o'qimagan semestrda keyingi semestrda o'qishga tavsiya etishga yo'l qo'yilmaydi.

1.14. Talabalarining o'qishini ko'chirish yoki qayta tiklash jarayonida Universitet rektori:

- o‘quv rejaları va fan dasturlaridagi akademik qarzdorlik yoki farqlarni topshirish tartibini;
- akademik farqlarni bartaraf etish muddatlarini;
- o‘qishni davom ettirish kursi (semestri)ni belgilaydi.

Bunda:

- a) reyting tizimi asosida o‘qitishda fanlar farqi 4 tadan ortiq bo‘lmasligi;
- b) kredit-modul tizimida o‘qitishda GPA ko‘rsatkichi 2,4 va undan yuqori bo‘lishi talab etiladi.

1.15. To‘lov-kontrakt asosida talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashda to‘lov miqdori va shartlari amaldagi qonunchilik hamda Universitetning ichki tartib hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

1.16. Kredit-modul tizimida aniqlangan fanlar farqi (akademik qarzdorlik yoki o‘zlashtirilmagan kreditlar) tegishli to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng qayta o‘zlashtiriladi.

1.17. Akademik ta‘tildan belgilangan muddatda qaytgan talaba uchun aniqlangan fanlar farqini bir martalik bepul o‘zlashtirish imkoniyati berilishi mumkin.

1.18. Asosiy tushunchalar

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mos ta‘lim yo‘nalishlari — nomlanishi bir xil bo‘lgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklari;

turdosh ta‘lim yo‘nalishlari — o‘quv rejaları va dasturlari mazmunan yaqin bo‘lgan ta‘lim yo‘nalishlari;

o‘qishni ko‘chirish — talabaning o‘qishini bir oliy ta‘lim tashkilotidan boshqasiga yoki bir oliy ta‘lim tashkiloti doirasida boshqa ta‘lim yo‘nalishiga belgilangan tartibda ko‘chirish;

o‘qishni ko‘chirib tiklash — sobiq talabaning o‘qishini boshqa oliy ta‘lim tashkilotida davom ettirish uchun tiklash;

o‘qishni qayta tiklash — sobiq talabaning o‘qishini o‘qigan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha qayta davom ettirishi.

1.19. Talabalar harakati quyidagi akademik jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘qishga qabul qilish;
- kursdan kursga o‘tkazish;
- akademik ta‘til berish;
- o‘qishni ko‘chirish;
- o‘qishni ko‘chirib tiklash;
- o‘qishni qayta tiklash;
- akademik qarzdorlik asosida kursda qoldirish;
- talabalar safidan chetlashtirish.

Talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi Universitetning "Magistratura ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizom o'qishga qabul qilinganidan keyingi talabalar harakati jarayonlarini qamrab oladi.

1.20. Mazkur Nizom quyidagi Universitet ichki normativ hujjatlari bilan birgalikda yaxlit talabalar harakati tizimini tashkil etadi:

- Magistratura ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom;
- ECTS kredit-modul tizimini joriy etish asosida o'quv jarayonini tashkil etish to'g'risida Nizom;
- Talabalar bilimini baholash to'g'risida Nizom.

Ushbu hujjatlar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda talabalar akademik hayot siklining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

2-bob. Universitet talabalari o'qishini ko'chirish

2.1. Universitetdan boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) bo'yicha arizalarni ro'yxatdan o'tkazish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda – elektron platforma) orqali bir o'quv yilida ikki marta quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- kuzgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin – 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham);
- bahorgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin – 10-yanvardan 20-yanvargacha (20-yanvar kuni ham).

Bahorgi semestr boshlanishidan oldin talabalar o'qishini boshqa oliy ta'lim tashkilotidan Universitetga ko'chirib tiklash to'g'risidagi arizalar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

2.2. O'qishini ko'chirish yoki ko'chirib tiklash istagini bildirgan fuqarolar elektron platformaga o'zining shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini kiritadi hamda quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

- mazkur Nizomning 1.19-bandida nazarda tutilgan holatlarni (sabablarni) tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- reyting daftarchasi, belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma yoki transkript nusxasi.

2.3. Bahorgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin – 10-yanvardan 20-yanvargacha talabalar o'qishini ko'chirish to'g'risidagi arizalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan tashkil etiladigan hududiy ishchi guruhlaridan ham qabul qilinishi mumkin.

2.4. Universitetga talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan arizalar elektron platforma orqali tegishliligiga ko'ra Universitetga yuboriladi.

2.5. Universitetda talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- kuzgi semestr boshlanishidan oldin – 6-avgustdan 30-avgustgacha (30-avgust kuni ham);

- bahorgi semestr boshlanishidan oldin – 21-yanvardan 10-fevralgacha (10-fevral kuni ham).

Bunda:

- Universitetda mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklar bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash to'g'risidagi arizalar ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi hamda natijasi haqida ariza beruvchiga elektron platforma orqali ma'lum qilinadi;

- bir oliy ta'lim tashkilotidan Universitetga mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishni ko'chirish yoki ko'chirib tiklash masalalari tegishli vazirlik yoki idora tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi;

- ariza ijobiy hal etilgan taqdirda tegishli vazirlik yoki idora tomonidan Universitetga o'qishi ko'chirilishiga (ko'chirib tiklanishiga) ruxsat etilgan talabalar ro'yxati ilova qilingan xat yuboriladi;

- mazkur Nizomning 1.12-bandida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha arizalar Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi;

- arizalar ijobiy hal etilgan taqdirda Davlat komissiyasi tomonidan Universitetga ruxsat etilgan talabalar ro'yxati ilova qilingan xat yuboriladi.

2.6. O'qishning barcha shakllarida oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklari bo'yicha davlat granti asosida o'qishni ko'chirishga davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar arizasiga ko'ra, Universitetda tegishli o'quv yiliga belgilangan qabul parametrlarida ajratilgan grant o'rinlari doirasida ruxsat etiladi.

Boshqa hollarda o'qishni ko'chirish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

2.7. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi kelishuv asosida tashkil etilgan qo'shma ta'lim dasturlarida tahsil olayotgan talabalar o'qishini ko'chirish Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi 421-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda:

- talabalar o'qishini ko'chirish jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi;
- o'qishni ko'chirish bo'yicha arizalar o'qishi ko'chirilishi rejalashtirilayotgan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi;
- zarur hollarda qaror qabul qilish jarayonida talaba tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkiloti bilan o'zaro kelishuv asosida yakuniy qaror qabul qilinadi;
- arizalarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish 15-iyuldan 30-avgustgacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi;
- arizalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Universitet tomonidan ariza beruvchiga belgilangan tartibda yozma ravishda javob beriladi.

3-bob. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan talabalar o'qishini ko'chirish

3.1. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) to'g'risidagi arizalar har yili 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining (keyingi o'rinlarda – Agentlik) rasmiy veb-sayti orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

3.2. Ro'yxatdan o'tkazilgan arizalar Agentlikning rasmiy veb-sayti orqali tegishliligiga ko'ra Universitetga yuboriladi.

Universitet tomonidan:

- arizalarning mazkur Nizom talablariga muvofiqligi;
- ko'chirilishi so'ralayotgan ta'lim yo'nalishining talaba tahsil olgan ta'lim yo'nalishiga mazmunan mos yoki turdoshligi tekshiriladi.

Tekshirish natijasiga ko'ra ariza qabul qilinadi yoki rad etiladi.

Ariza rad etilgan taqdirda, rad etish sababi Agentlikning rasmiy veb-saytidagi talabaning shaxsiy kabineti orqali ma'lum qilinadi.

3.3. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan Universitetning mos va turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) istagini bildirgan fuqarolar muayyan ta'lim yo'nalishiga kirish fanlari bo'yicha o'qitish tilida maxsus sinov topshiradi.

Maxsus sinovlar quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

- test sinovi;
- kasbiy (ijodiy) imtihon.

Maxsus sinovlar Universitet bakalavriatiga talabalarni qabul qilish uchun belgilangan tartib asosida o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar tegishli oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkazilib, natijalari Agentlikning maxsus axborot tizimiga kiritiladi.

Maxsus sinovlar uchun o'tish ballari vazirlik va idoralarning takliflari asosida Vazirlik tomonidan har yili 15-iyulga qadar tasdiqlanadi hamda rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

3.4. Maxsus sinovlar o'tgan o'quv yilida respublika oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun tasdiqlangan:

- test topshiriladigan fanlar majmuasi;
- test topshiriqlari soni;
- baholash mezonlari asosida o'tkaziladi.

3.5. Maxsus sinovlar Vazirlik bilan kelishilgan holda Agentlik tomonidan belgilangan muddatlarda tashkil etiladi va o'tkaziladi.

3.6. Test sinovlari Agentlik tomonidan o'tkaziladi. Natijalar kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bilan umumlashtirilgan holda bir hafta muddatda Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi hamda Universitetga yuboriladi.

3.7. Maxsus sinovlar natijalariga ko'ra:

- o'tish baliga teng yoki undan yuqori ball to'plagan talabalar o'qishi muayyan ta'lim yo'nalishiga bazaviy to'lov-kontrakt asosida ko'chirilishiga ruxsat etiladi;

- o'tish balidan past ball to'plagan talabalar arizalariga ko'ra qo'shimcha yoki tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Agar talabalar Davlat komissiyasi tomonidan bakalavriatga kirish uchun belgilangan minimal balldan kam bo'lmagan, biroq o'tish baliga 4 ballgacha yetmagan bo'lsa, ular arizasiga ko'ra qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Bunda to'lov-kontrakt miqdori bazaviy kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi koeffitsiyentlarda belgilanadi:

- 1,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 1,5 barobari;

- 1,05 balldan 2,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,0 barobari;

- 2,05 balldan 3,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,5 barobari;

- 3,05 balldan 4,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 3,0 barobari.

Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda birinchi o'quv yili uchun kontrakt to'lovining kamida 50 foizi to'langanidan so'ng talabgor Universitet rektorining buyrug'i bilan talabalikka qabul qilinadi.

3.8. Agar talabalar:

minimal balldan kam bo'lmagan,

biroq o'tish baliga 4 balldan ortiq yetmagan bo'lsa, ular arizasiga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishini ko'chirish huquqiga ega bo'ladi.

Bunda birinchi o'quv yilida Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan miqdorda kontrakt to'lovi amalga oshiriladi.

Kontrakt to'lovining kamida 50 foizi to'langandan so'ng talabgor Universitet rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

3.9. Talabalar o'qishini xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim tashkilotlaridan Universitetning mos yoki turdosh bo'lmagan bakalvriat ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishga ruxsat etilmaydi.

3.10. Agentlik tomonidan o'tkazilgan test sinovlari natijalari bo'yicha tuzilgan qaydnoma Universitet rektorining talabgorlarni belgilangan tartibda talabalikka tavsiya etish to'g'risidagi buyrug'ini rasmiylashtirish uchun asos bo'ladi.

3.11. Turmush o'rtog'i yoki ota-onasi xorijiy davlatdagi davlat xizmatidan Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasiga qaytarilgan shaxslar, shuningdek Hukumat qarorlari asosida yoki tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o'qishga yuborilgan shaxslarning o'qishi Davlat komissiyasi qaroriga asosan imtihonsiz ravishda Universitetga ko'chirilishi mumkin.

3.12. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'qishini Universitetga ko'chirishga ruxsat etilmaydi.

3.13. Xorijiy fuqarolarning o'qishi xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan Universitetga suhbat asosida, Universitet rektorining buyrug'i bilan ko'chiriladi (ko'chirib tiklanadi).

Ularning to'lov-kontrakt miqdorlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4-bob. Talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish

4.1. Vazirlik, tegishli idora yoki Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq yuborilgan ko'rsatma xati asosida Universitet rektorining talabaning dars mashg'ulotlarida qatnashishiga ruxsat berish to'g'risidagi buyrug'i rasmiylashtiriladi.

Shundan so'ng Universitet tomonidan talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim tashkilotiga talabaning shaxsiy yig'majildini yuborish to'g'risida so'rovнома jo'natiladi.

Talabaning shaxsiy yig'majildini Universitetga taqdim etishning so'nggi muddati 20 ish kunidan kam bo'lmagan muddatda Universitet rektori tomonidan belgilanadi.

4.2. So‘rovnoma olingandan so‘ng talaba ilgari ta‘lim olgan oliy ta‘lim tashkiloti rektorining talabalar safidan chetlashtirish to‘g‘risidagi buyrug‘i asosida uch ish kuni ichida talabaning shaxsiy yig‘majildi (ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati bilan) uni o‘qishga qabul qilgan Universitetga yuboriladi yoki ariza asosida talabaga topshiriladi.

Shaxsiy yig‘majildni yuborish imkoni bo‘lmagan hollarda (yopiq yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashda) oliy ta‘lim tashkiloti rektori tomonidan imzolangan va gerbli muhr bilan tasdiqlangan akademik ma‘lumotnoma Universitetga yuboriladi.

Agar o‘qishi ko‘chirilishiga ruxsat etilgan talaba maqsadli qabul asosida tahsil olayotgani aniqlansa, bu holat talaba o‘qiyotgan oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan tekshiriladi. Mazkur holat tasdiqlangan taqdirda uch ish kuni ichida so‘rovnoma yuborgan oliy ta‘lim tashkilotiga hamda talabaga o‘qishni ko‘chirish mumkin emasligi to‘g‘risida rasmiy xat yuboriladi.

4.3. Talaba ilgari ta‘lim olgan oliy ta‘lim tashkilotida quyidagi hujjatlar nusxalari saqlab qolinadi:

- akademik ma‘lumotnoma;
- reyting daftarchasi;
- o‘quv kartochkasi;
- yuborilgan hujjatlar ro‘yxatining nusxasi.

4.4. Talabalar harakati bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish uchun Universitetda Talabalar akademik harakati bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) tashkil etiladi.

Komissiya tomonidan:

- talabaning o‘qigan va o‘qishi ko‘chirilishi so‘ralayotgan ta‘lim yo‘nalishlarining mos yoki turdoshligi;
- mazkur Nizomning 1.9-bandida nazarda tutilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar sinchiklab o‘rganiladi.

Agar ushbu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar belgilangan talablarga javob bermasa, Universitet rektorining talabalikka qabul qilish to‘g‘risidagi buyrug‘i rasmiylashtirilmaydi.

4.5. Komissiya tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- akademik ishlar bo‘yicha prorektor — komissiya raisi;
- fakultet dekani yoki dekan o‘rinbosari;
- akademik ishlar departamenti vakili;
- yuridik maslahatchi;
- Talabalar kengashi vakili.

Komissiya qarori komissiya a‘zolarining ochiq ovoz berishi orqali qabul qilinadi.

Komissiya a'zolari qaror qabul qilish jarayonida xolislik, shaffoflik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga amal qilishi shart.

4.6. O'qishi ko'chirilgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning qalbakiligi yoki belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlangan taqdirda:

- shaxs talabalikka qabul qilinmaydi;
- agar talabalikka qabul qilingan bo'lsa, belgilangan tartibda talabalar safidan chetlashtiriladi.

Komissiya quyidagi vakolatlarga ega:

a) mazkur Nizomning 1.9-bandida nazarda tutilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxalarini tekshiradi;

b) talaba tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiylikini va ishonchliligini aniqlaydi;

c) agar ko'chirish uchun asos mavjud bo'lsa, biroq Universitetda mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmasa, talabani avval o'qigan yo'nalishiga mazmunan yaqin ta'lim yo'nalishiga tavsiya berish masalasini ko'rib chiqadi;

d) agar talaba turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga ko'chirish uchun murojaat qilgan bo'lsa, ammo hududdagi boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida mos yoki turdosh yo'nalishlar mavjud bo'lsa, komissiya talabani mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishiga ko'chirish bo'yicha taklif tayyorlaydi hamda uni tegishli vazirlik yoki idoraga yuboradi;

e) Universitet tomonidan tayyorlangan takliflar tegishli vazirlik yoki idora tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi va zarur hollarda boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga ko'chirishga ruxsat beriladi.

O'qishi ko'chirilgan talabalarni talabalikka qabul qilish to'g'risidagi Universitet rektorining buyrug'i shartnoma to'lovlari belgilangan miqdorda amalga oshirilganidan so'ng 10 kun muddatda rasmiylashtiriladi.

4.7. Talabalar harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlar talabalarga quyidagi shakllarda yetkaziladi:

- Universitetning HEMIS axborot tizimi orqali;
- rasmiy elektron pochta orqali;
- Universitet rasmiy veb-sayti orqali;
- zarur hollarda yozma xabarnoma orqali.

Talabalar harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlar qaror rasmiylashtirilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida yuqoridagi kanallar orqali talabaga yetkaziladi. Qaror yetkazilganligi HEMIS axborot tizimida qayd etiladi. Agar talaba belgilangan muddat ichida qaror bilan tanishmagan bo'lsa, Universitet qo'shimcha ravishda yozma xabarnoma yuboradi.

4.8. Talabani boshqa oliy ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirib tiklashda Universitetning roziligi talab etilmaydi.

5-bob. Universitet talabalari o'qishini qayta tiklash

5.1. Universitet talabalarining o'qishini qayta tiklash bo'yicha arizalarni qabul qilish bir o'quv yilida ikki marta quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- kuzgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin - 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham);
- bahorgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin - 10-yanvardan 20-yanvargacha (20-yanvar kuni ham).

Arizalar Universitet tomonidan elektron shaklda ham qabul qilinishi mumkin.

5.2. O'qishini qayta tiklash istagini bildirgan talaba arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- reyting daftarchasi nusxasi;
- belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma;
- yoki transkript nusxasi.

5.3. Universitet talabalari o'qishini qayta tiklash to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- kuzgi semestr uchun - 6-avgustdan 31-avgustgacha;
- bahorgi semestr uchun - 21-yanvardan 10-fevralgacha.

5.4. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha talabalarni talabalar safiga qayta tiklash to'lov-kontrakt asosida, mazkur Nizom talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Quyidagi toifadagi shaxslar istisno tariqasida davlat granti asosida o'qishga qayta tiklanishi mumkin:

- davlat granti asosida tahsil olgan yetimlar;
- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda nogironligi bo'lgan bolalar;
- muddatli harbiy xizmatni o'tab, zaxiraga bo'shatilgan shaxslar (zaxiraga bo'shatilgan kundan boshlab bir yil mobaynida);
- akademik ta'tildan belgilangan muddatda qaytgan shaxslar;
- Hukumat qarorlari yoki topshiriqlari asosida hamda tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o'qishga yuborilgan va belgilangan muddatda qaytgan talabalar.

5.5. Hukumatlararo, idoralararo yoki oliy ta'lim tashkilotlararo kelishuvlar doirasida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bir yoki bir necha semestr tahsil olib, belgilangan muddatda qaytgan talabalar o'qishini davom ettirishga ruxsat etiladi.

Bunda:

- xorijiy oliy ta'lim tashkilotida o'qilgan semestrlar inobatga olinadi;
- talaba o'qishni avval tahsil olgan ta'lim yo'nalishi va ta'lim shakli bo'yicha davom ettiradi;

- davlat granti asosida tahsil olgan talabalar o'qishni davlat granti asosida davom ettirishi mumkin.

Mazkur holatda o'quv rejalaridagi fanlar farqi tegishli o'quv semestri davomida qayta o'zlashtirilishiga ruxsat etiladi.

Belgilangan muddatdan kech qaytgan talabalar o'qishini tiklash masalasi umumiy tartibda ko'rib chiqiladi.

5.6. Talabani talabalar safiga qayta tiklash hamda belgilangan tartibda dars mashg'ulotlarida qatnashishiga ruxsat berish to'g'risidagi Universitet rektorining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishi tiklangan talabalarni talabalikka qabul qilish to'g'risidagi buyruq ular tomonidan shartnoma bo'yicha to'lovlar belgilangan muddatda amalga oshirilgandan so'ng 10 kun muddatda rasmiylashtiriladi.

5.7. Talabani o'qishdan chetlashtirilgan o'quv yilida (o'qigan kursi yoki semestri bo'yicha) o'qishga qayta tiklash yoki ko'chirib tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

6-bob. Universitet talabalarini o'qishdan chetlashtirish, kursdan kursga qoldirish, akademik ta'til berish

6.1. Talabani o'qishdan chetlashtirish asoslari

Talabani oliy ta'lim tashkilotidan chetlashtirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- a) talabaning o'z xohishiga ko'ra;
- b) talabaning o'qishi boshqa oliy ta'lim tashkilotiga ko'chirilgan taqdirda;
- c) Universitetning ichki tartib-qoidalarini hamda odob-axloq qoidalarini buzgan taqdirda;
- d) bir semestr davomida uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq dars qoldirgan taqdirda (tibbiy muassasa tomonidan berilgan belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilgan holatlar bundan mustasno);
- e) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda (to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalar uchun);
- f) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan taqdirda;
- g) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartib buzilganligi aniqlangan taqdirda (ushbu asos bo'yicha chetlashtirilgan shaxslar talabalikka qayta tiklanmaydi);
- h) kursda qoldirilgan talaba o'qishni davom ettirish bo'yicha belgilangan muddatlarda murojaat qilmagan taqdirda;
- i) talaba tomonidan qabul jarayonida taqdim etilgan hujjatlarning qalbakiligi yoki belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlanganda;

j) talaba vafot etgan taqdirda.

Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, bolani parvarish qilish, shuningdek oilasining betob a'zosini (ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, turmush o'rtog'i, farzandi) parvarish qilish zarurati yuzaga kelganda talabaga belgilangan tartibda akademik ta'til berilishi mumkin.

6.2. Talabalar Universitet rektorining buyrug'i bilan quyidagi hollarda kursda qoldirilishi mumkin:

– belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmagan taqdirda (akademik qarzdorlik mavjud bo'lsa), kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim yo'nalishlari bundan mustasno;

– kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim yo'nalishlarida semestr yoki o'quv yili yakuni bo'yicha GPA o'tish balini to'play olmagan taqdirda;

– malakaviy amaliyotda qatnashmagan yoki malakaviy amaliyot natijalari bo'yicha qoniqarsiz baho olgan taqdirda.

Kursda qoldirish Universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Kursda qoldirilgan talaba to'lov-kontrakt asosida o'qishni tegishli o'quv semestrining boshidan davom ettiradi.

Akademik qarzdorlik tufayli kursda qoldirilgan talabalar tegishli semestr dan boshlab faqat o'zlashtira olmagan fanlarini (modullarni) takroran o'qiydi.

Kursda qoldirilgan talaba o'qishni davom ettirish uchun Universitetga o'qishni qayta tiklash uchun belgilangan muddatlarda ariza bilan murojaat qiladi.

Kursda qoldirilgan talaba mazkur Nizomning 6.1-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

6.3. Talabalarni kursdan kursga o'tkazish tartibi

6.3.1. Talabalarni kursdan kursga o'tkazish har o'quv yili yakunida (iyun-iyul) Akademik ishlar departamenti muvofiqlashtiruvchiligida amalga oshiriladi.

6.3.2. Talaba keyingi kursga o'tkaziladi, agar:

a) joriy o'quv yili uchun belgilangan barcha fanlar bo'yicha ijobiy baho olgan bo'lsa;

b) kredit-modul tizimida — GPA ko'rsatkichi 2,4 va undan yuqori bo'lsa;

c) reyting tizimida — o'zlashtira olmagan fanlari soni 4 tadan oshmagan bo'lsa;

d) malakaviy amaliyotdan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa (tegishli kurslar uchun).

6.3.3. Kursdan kursga o'tkazish natijalari quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi va yetkaziladi:

a) Fakultet dekani o'tish ro'yxatini shakllantiradi va Universitet rektoriga taqdim etiladi;

c) Universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi;

- d) natijalar HEMIS axborot tizimi orqali talabalarga yetkaziladi;
- e) kursda qoldirilgan talabalar qo'shimcha ravishda yozma yoki elektron xabarnoma orqali xabardor qilinadi.

6.4. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash yoki ko'chirib tiklash jarayonida:

- shaxsiy yig'majilddagi hujjatlar to'liq taqdim etilmagan;
- hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilgan;
- hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlanmagan holatlar aniqlangan taqdirda

Universitet rektori hujjatlarni qo'shimcha tekshirish hamda buyruq rasmiylashtirmaslik huquqiga ega.

6.5. Talabaning shaxsiy yig'majildida quyidagi hujjatlar mavjud bo'lishi shart:

- umumiy o'rta, o'rta maxsus yoki boshlang'ich kasbiy ta'lim to'g'risidagi hujjat va uning ilovasining asl nusxasi;
- talabalikka qabul qilinganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;
- oxirgi o'qigan kursiga o'tkazilganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;
- akademik ma'lumotnoma yoki transkriptning asl nusxasi;
- talabalar safidan chetlashtirilganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;
- talaba o'qigan oliy ta'lim tashkilotidan olingan rasmiy javob xati.

6.6. Shaxsiy yig'majildni shakllantirish

Universitetga o'qishini ko'chirgan yoki qayta tiklagan talabalarning shaxsiy yig'majildiga quyidagi hujjatlar tikib qo'yiladi:

- Universitet rektorining buyrug'idan ko'chirma;
- talabaning arizasi;
- akademik ma'lumotnoma yoki transkript.

6.7. Akademik qarzdorlikni bartaraf etish

Agar o'quv rejalaridagi fanlar bo'yicha farqlar aniqlansa, talaba akademik qarzdor sifatida o'qishga qabul qilinadi.

Bunday talabalar tegishli semestr davomida o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqib to'lov amalga oshirgandan so'ng fanlarni qayta o'zlashtiradi.

6.8. Hujjatlarning qonuniyligi uchun javobgarlik

Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash yoki ularni o'qishdan chetlashtirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va qonuniyligi uchun Universitet mas'ul hisoblanadi.

Zarurat tug'ilganda Universitet rektori hujjatlarni yuborgan oliy ta'lim tashkilotidan rasmiy xat orqali taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlashni so'rashi mumkin.

Agar talabaning bir o'quv yili davomida o'zlashtira olmagan fanlari soni besh yoki undan ortiq bo'lsa, u kursdan-kursga o'tkazilmaydi.

ECTS kredit-modul tizimi asosida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlarida akademik qarzdorligi mavjud talabalar tegishli semestrda boshlab o'zlashtira olmagan fanlarini Universitetning kredit-modul tizimi to'g'risidagi nizomiga muvofiq qayta o'qishi mumkin.

6.9. Talabani chetlashtirishda hujjatlarni topshirish

Talaba Universitetdan chetlashtirilgan taqdirda unga (yoki ota-onasi yoxud qonuniy vakiliga ularning arizasi asosida):

- shaxsiy hujjatlari;
- belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma topshiriladi.

Mazkur hujjatlarning nusxasi talabaning shaxsiy yig'majildiga tikib qo'yiladi.

6.10. Talablarga akademik ta'til berish tartibi

6.10.1. Talabaga akademik ta'til quyidagi asoslarda berilishi mumkin:

- a) harbiy xizmatga chaqirilganda — harbiy komissariatning chaqiruv qog'ozi asosida;
- b) salomatligini tiklash zarurati — tibbiy-maslahat komissiyasi xulosasi asosida;
- c) homiladorlik va tug'ish — tibbiy muassasa ma'lumotnomasi asosida;
- d) bolani parvarish qilish — tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va ariza asosida (bola 2 yoshga to'lguncha);
- e) oilasining betob a'zosini parvarish qilish zarurati — tibbiy muassasa xulosasi asosida;
- f) qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asosli holatlar.

6.10.2. Akademik ta'til muddati bir o'quv yilidan oshmasligi kerak. Istisno hollarda (harbiy xizmat, og'ir kasallik) muddat qonunchilikda belgilangan tartibda uzaytirilishi mumkin.

6.10.3. Akademik ta'til berish uchun talaba quyidagi tartibda murojaat qiladi:

- a) talaba rector nomiga yozma ariza taqdim etadi;
- b) arizaga asosni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi (chaqiruv qog'ozi, tibbiy xulosa, guvohnoma va h.k.);
- c) ariza va hujjatlar fakultet dekani tomonidan 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi;
- d) dekan xulosasi Universitet rektoriga taqdim etiladi;
- e) akademik ta'til berish Universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

6.10.4. Akademik ta'tildan qaytish tartibi:

- a) talaba akademik ta'til muddati tugashidan kamida 15 kun oldin Universitetga yozma ariza taqdim etadi;
- b) salomatlik sababli akademik ta'tildan qaytayotgan talaba tibbiy muassasa xulosasini taqdim etadi;

c) qaytish to'g'risida Universitet rektorining buyrug'i rasmiylashtiriladi;
d) talaba akademik ta'tilga chiqqan semestrda boshlab o'qishni davom ettiradi;

e) akademik ta'tildan belgilangan muddatda qaytgan talaba uchun aniqlangan fanlar farqini bir martalik bepul o'zlashtirish imkoniyati berilishi mumkin (Nizomning 1.17-bandiga muvofiq).

6.10.5. Akademik ta'til davomida talabaning talabalar safidagi maqomi saqlanadi. Talaba akademik ta'til muddati tugashida qaytish uchun murojaat qilmagan taqdirda, Nizomning 6.1-bandi asosida talabalar safidan chetlashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

6.10.6. Akademik ta'til bilan bog'liq barcha hujjatlar (ariza, asosni tasdiqlovchi hujjat, rektor buyrug'i, qaytish buyrug'i) talabaning shaxsiy yig'majildida saqlanadi.

6.10.7. Akademik ta'til berish statistikasi (soni, asoslari, qaytish ko'rsatkichlari) har o'quv yili yakunida Akademik ishlar departamenti tomonidan tahlil qilinadi va 7.7-banddagi yillik hisobotga kiritiladi.

7-bob. Talabalar shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi

7.1. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish, kursda qoldirish, akademik ta'til berish yoki talabalar safidan chetlashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlardan norozi bo'lgan talaba qaror unga yetkazilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Universitetga shikoyat (apellyatsiya) bilan murojaat qilish huquqiga ega. Belgilangan muddatdan keyin berilgan shikoyatlar faqat uzrli sabab mavjud bo'lganda (tibbiy ma'lumotnoma yoki boshqa rasmiy hujjat asosida) qabul qilinadi.

7.2. Shikoyatlar quyidagi shakllarda qabul qilinadi:

- Universitetning elektron platformasi orqali;
- yozma ariza shaklida;
- Universitetning rasmiy elektron pochta manzili orqali.

7.3. Talabalar harakati bilan bog'liq shikoyatlar Universitet rektorining buyrug'i bilan har o'quv yili boshida tashkil etiladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Komissiya quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

- akademik ishlar bo'yicha prorektor (komissiya raisi);
- tegishli fakultet dekani yoki dekan o'rinbosari;
- Akademik ishlar departamenti vakili;
- yuridik maslahatchi;
- Talabalar kengashi vakili (kuzatuvchi sifatida).

Shikoyat bevosita tegishli bo'lgan mas'ul shaxs (masalan, qaror qabul qilgan dekan) ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etmaydi (manfaatlar to'qnashuvi tamoyili).

- 7.3.1. Apellyatsiya komissiyasi quyidagi vakolatlarga ega:
- a) qaror qabul qilish asosida foydalanilgan hujjatlarni qayta tekshirish;
 - b) talabdan va qaror qabul qilgan mas'ul shaxsdan tushuntirish olish;
 - c) qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash;
 - d) dastlabki qarorni o'z kuchida qoldirish, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - e) masalani qo'shimcha ko'rib chiqish uchun tegishli tuzilmaga qaytarish.

Komissiya qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va talabaga 3 ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

7.4. Shikoyatlar u kelib tushgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda qo'shimcha hujjatlar talab etilishi yoki masala qo'shimcha o'rganilishi mumkin.

7.5. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror talabaga yoki murojaat etuvchiga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladi.

7.6. Kelib tushgan shikoyatlar tahlil qilinib, talabalar harakati bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

7.7. Universitetning Akademik ishlar departamenti har yili talabalar harakati hamda kelib tushgan shikoyatlar bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlaydi va uni Universitet kengashi muhokamasiga taqdim etadi. Bunda talabalar akademik harakati jarayonlari samaradorligini baholash uchun har yili quyidagi ko'rsatkichlar monitoringi olib boriladi:

- o'qishni ko'chirish arizalari soni,
- rad etilgan arizalar ulushi, ko'rib chiqish muddati,
- shikoyatlar soni va ularning qanoatlantirilish darajasi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Mazkur Nizom Universitet kengashida ko'rib chiqiladi hamda Universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi va Xalqaro Nordik universiteti Ta'rischilar kengashi bilan kelishiladi.

Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ham mazkur tartib asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom kamida har uch yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

8.2. Talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash jarayonida shaxsiy yig'majilddagi hujjatlar to'liq taqdim etilmaganligi, taqdim etilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi yoki hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlanmaganligi aniqlangan taqdirda Universitet rektori mazkur hujjatlarni qo'shimcha tekshirish hamda buyruq rasmiylashtirmaslik huquqiga ega.

8.3. Universitetga o'qishini ko'chirgan yoki qayta tiklangan talabalarning shaxsiy yig'majildiga quyidagi hujjatlar tikib qo'yiladi:

- tegishli buyruqdan ko'chirma;
- talabaning arizasi;
- akademik ma'lumotnoma yoki transkript.

8.4. Universitetga talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash yoki o'qishdan chetlashtirish jarayonlari bilan bog'liq barcha hujjatlar Universitet arxivida kamida 3 yil davomida saqlanadi.

8.5. Mazkur Nizom hamda talabalar akademik harakati bo'yicha umumiy statistik ma'lumotlar Universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi hamda barcha talabalar uchun ochiq va foydalanish uchun erkin bo'ladi. Shuningdek, talabalar akademik harakati bilan bog'liq jarayonlar kamida har ikki yilda bir marta universitet ichki sifat nazorati tizimi doirasida auditdan o'tkaziladi.

8.6. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.